



YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O'zbekiston, Toshkent, 100029, T.Shevchenko ko'chasi 1-uy / 1, T.Shevchenko street, Tashkent, 100029, Uzbekistan
tel: (+998-91) 477-70-90 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2025-yil 30-iyul № 257/25

SHOSHILINCH!

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligiga
Raqmli texnologiyalar vazirligiga

Ma'lumot uchun:

Tashqi ishlar vazirligiga

O'qituvchilarni salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan YUNESKO/Hamdan mukofotining 2025-2026-yillar uchun navbatdagi tanlovi e'lon qilindi (<https://www.unesco.org/en/prizes/teacher-development>).

Hamdan bin Rashid Al-Maktum nomidagi jamg'arma yuqori akademik ko'rsatkichlarga erishgan tashkilot, ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalar loyihalarini moliyalashtiradi.

Ushbu mukofot har ikki yilda bir marta rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy yordamga muhtoj hamjamiyatlariga ustuvor ahamiyat berib, butun dunyo bo'ylab ta'lim berish va ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shayotgan innovatsion amaliyotlarni amalga oshirayotgan jamoalarga beriladi. Tanlov yakunida 300 000 AQSh dollari miqdoridagi mukofot uchta g'olibga teng taqsimlanadi.

Ro'yxatdan o'tgandan so'ng nomzodlarga arizalarni onlayn to'ldirishga ruxsat beriladi. Har bir a'zo-davlat 5 tagacha nomzodni tavsiya etishi mumkin. Arizalar ingliz yoki fransuz tillarida 2025-yilning 24-oktyabr kuniga qadar onlayn platforma orqali joylanishi lozim.

Shu munosabat bilan, yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga faol hissa qo'shayotgan ta'lim muassa hamda tashkilotlarini YUNESKO/Hamdan mukofotiga tavsiya etishda amaliy yordam berishingiz so'raladi.

Ilova: __ v.

Bosh kotib o'rinbosari



E. Najimov

Ijrochi: D.Kurbanova
Tel.: 977493470